

Konstantin Dmitrievich Ushinskiyning didaktika o'qitish nazariyasi

Mehrioy Mirkomiljon-qizi Turg'unboyeva
Ilmiy maslahatchi: M.M.Mirzakarimova
Andijon davlat chet tillari instituti

Annotatsiya: Mazkur maqolada XIX asr pedagog olimi Konstantin Dmitrievich Ushinskyning pedagogik qarashlari ilmiy jihatdan atroflicha tahlil qilinadi. Shuningdek, olimning milliylik tamoyil, ta'lim va tarbiya jarayoniga oid izlanishlari va pedagogikaning mustaqil ilmiy soha sifatida shakllanishiga qo'shgan hissasi izchil yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: pedagogika, ta'lim jarayoni, tarbiya nazariyasi, milliylik tamoyili, intellektual rivojlanish

Konstantin Dmitrievich Ushinsky's Theory of Didactics Teaching

Mehrioy Mirkomiljon-kyzi Turgunbayeva
Scientific Advisor: M.M.Mirzakarimova
Andijan State Institute of Foreign Languages

Abstract: This article provides a comprehensive scientific analysis of the pedagogical views of the 19th century pedagogical scientist Konstantin Dmitrievich Ushinsky. It also consistently highlights the scientist's research on the principle of nationality, the process of education and upbringing, and his contribution to the formation of pedagogy as an independent scientific field.

Keywords: pedagogy, educational process, theory of upbringing, principle of nationality, intellectual development

Pedagogika fanining tarixiy taraqqiyotini o'rganish jarayonida rus olimi Ushinskyning ilmiy merosi alohida metodolik manba sifatida e'tirof etiladi. XIX asrda ta'lim nazariyasining shakllanishi, uning ilmiy asoslarini ishlab chiqish hamda tarbiya jarayonining ta'limdagi ahamiyatini asoslash jarayonini aynan Ushinskyning faoliyatiga bog'liq. O'sha davr pedagog olimlarining konseptual yondashuvidan farqli ravishda, Ushinsky ta'limning nazariy asoslarini psixologiya, falsafa va ijtimoiy omillar bilan bog'liq holda tahlil qilgan. Olim ta'lim va tarbiya jarayonini shunchaki amaliy faoliyat sifatida emas, balki uyg'unlikdagi ilmiy tizim sifatida

o'rganishga e'tibor qaratgan. Ushinsky takidlaganidek, "Agar pedagogika insonni har tomonlama tarbiyalamoqchi bo'lsa, avvalo har tomonlama bilishi kerak" [1]. Aynan shu davrda pedagogika mustaqil fan bo'lib rivojlana boshladi va uning nazariy tamoyillari ishlab chiqilib, tizimlashtirishga e'tibor qaratildi.

Ilmiy pedagogikaning shakllanish jarayoni XVII asrda ilmiy-nazariy asoslarning paydo bo'lishi bilan boshlanadi. XVIII asrda ma'rifatparvarlik g'oyalari ta'sirida ta'lim jarayonida insonparvarlik ruhi ustuvor ahamiyat kasb etdi. XIX asr esa pedagogikaning mustaqil fan sifatida to'liq shakllanib, ilmiy asoslangan va metodologik jihatdan tizimlashtirilgan soha sifatida rivojlandi. Aynan shu jarayonda, Ushinsky pedagogikaning ilmiy asoslarini mustahkamlashga katta hissa qo'shdi. Faoliyati davomida Ushinskiy pedagogikani psixologiya va falsafa fanlaridan mustaqil fan sifatida ajratib, uning ilmiy asoslarini shakllantirdi va ta'lim jarayonini tizimli, metodologik jihatdan mustahkam tamoyillar asosida tashkil etishga e'tibor qaratdi. Shuningdek, Ushinskiyning pedagogik qarashlarini qisqacha ifodalashda ularni to'rt asosiy so'z bilan tavsiflash mumkin: milliylik, til, mehnat va ilm. Milliylik – global kontekstda shaxs va xalqning o'ziga xosligini rivojlantirish; til – bilim va tafakkur vositasi; ilm – san'at va ta'limning poydevori; mehnat esa shaxsiy baxt va shaxsiy kamolot manbai sifatida qaraladi. Shu bilan bir qatorda, Ushinskyning pedagogik qarashlarida milliylik tamoyili alohida o'rin tutadi. U ta'lim va tarbiya jarayoni har bir millatning madaniyati, tarixi va an'analari bilan bog'liq deb hisoblagan. Olimning fikricha, begona tizimni to'liq ko'chirib olish pedagogik jarayonda samarali emas; aksincha, ya'limni milliy ildizlarga asoslanib, o'ziga xoslikni yanada rivojlantirishga xizmat qilishi lozim.

Ushinskiy didaktika o'qitish nazariyasining psixologik asoslarini o'sha vaqtdagi ilmiy muvaffaqiyatlarga muvofiq ravishda bayon qilib berdi. Uning ta'limotida diqqat, iroda, xotira va xisyutrlarni tarbiyalash to'g'risida va bu psixik hodisalar qonug'iyatlarini ta'limga tadbiiq etish to'g'risida qimmatli ko'rsatmalar borligini ko'ramiz. Ghunonchi, u har qanday ta'lim jarayonida shakllar yo'li bilan bolalarning faol diqqatini rivojlantirish, qanday qilib ongli xotirani tarbiyalash, takrorlash yo'li bilan o'quv materiallarini o'quvchilar ongida mustahkamlashni tavsiya qildi [3].

Individual ta'lim haqida innovatsion o'qitish usuli, bunda har bir o'quvchi uchun maxsus ishlab chiqilgan o'quv dasturi bo'yicha dars mashg'ulotlarida ishtirok etishi tushuniladi. Lekin buni tag tomiriga qaralsa u yaqinda paydo bo'lgan yangi yo'nalish emas. Pedagogika sohasiga bu tushunchani Ushinskiy kiritgan desak xato bo'lmaydi. Garchi o'zi kiritgan g'oya nomini aynan individual ta'lim istilohi bilan atamagan bo'lsada, uning qarashlarida ta'lim jarayonida har bir bolaning qobiliyati ehtiyojlari va qiziqishlariga mos tarzda tashkil qilinishi, ta'limda yagona standart yondashuvni emas balki shaxsning yakka rivojlanishiga xizmat qiladigan tizim ekanligi aks etgan.

Mehnat tarbiyasi ham uning pedagogik yondashuvida katta ahamiyatga ega. Unga ko'ra, mehnat nafaqat jismoniy harakat, balki shaxsiy kamolot va baxt manbai sifatida qaraladi. Pedagogik jarayonda ish faoliyati bilim va axloqiy tarbiya bilan uyg'unlashtirilishi, bolalarda mas'uliyat va mustaqillik hissini shakllantirishi kerak. Shu tariqa mehnat tarbiyasi nafaqat kasb tayyorgarligiga, balki shaxsiy fazilatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi.

Ona tilining ahamiyati Ushinskiy pedagogikasida markaziy mavqega ega. Bola ta'limni avvalo o'z ona tilida olishi zarur, chunki til tafakkur, fikrlash va ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishning asosiy vositasi hisoblanadi. Ona tilida ta'lim olish orqali shaxs bilimlarni chuqurroq o'zlashtiradi va ijodiy fikrlash ko'nikmalari mustahkamlanadi. Ushinsky bu tamoyilni ta'lim jarayonining barcha bosqichlarida asosiy prinsip sifatida qo'llagan.

Yuqoridagilardan ko'rishimiz mumkinki, Ushinskiy pedagogikaning otasigina bo'lib qolmay, u o'zining ishlari g'oyalari bilan pedagogikaga chambarchas bog'liq bo'lgan boshqa fanlarga ham ijobiy ta'sirini o'tkazgan. Shu orqali Ushinskiy pedagogik nazariyani nafaqat ilmiy, balki amaliy jihatdan ham zamonaviy ta'lim tizimlariga tatbiq etish mumkinligini ko'rsatdi. Ushinskiyning pedagogik g'oyalari bugungi kunda ham o'z ahamiyatini yo'qotmagan, balki u qurib bergan asos ustiga keyingi avlod g'isht qo'yib pedagogika imoratini mustahkamlash bilan band. U pedagogikani ilmiy fan sifatida ko'rib, ta'lim va tarbiyani tizimli, metodologik asosda rivojlantirishda eng asosiy vazifani bajardi. Ushinskiy o'zining barcha nazariy va amaliy ishlarini boshlang'ich maktabning umumiy ma'lumoti poydevori bo'la oladigan qilib tashkil etgan. Uning ko'pgina fikrlari hozirgi vaqtda ham o'z mohiyatini yo'qotgan emas.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Konstantin Dmitrievich Ushinsky. Chelovek kak predmet vospitaniya (Inson – tarbiya predmeti sifatida). — Sankt-Peterburg, 1868–1869.
2. Konstantin Dmitrievich Ushinsky. Rodnoye slovo (Ona so'zi). — Sankt-Peterburg, 1864.
3. Madaminjonovna, M. M. METHODOLOGY OF EDUCATIONAL TEACHING OF GENERAL SCIENCES.
4. Muhammaddilyor Diyorbek O'G'Li Uzoqjonov, & Maxliyoxon Madaminjonovna Mirzakarimova (2025). Atrof-muhitni asrash va ekologik barqarorlikni ta'minlash muammolari. Science and Education, 6 (12), 17-21.
5. Mirzakarimova, M. (2025). O 'QUVCHILARDA TADBIRKORLIK TUSHUNCHALARINI RIVOJLANTIRISHNING DIAGNOSTIK TAHLILI. Scientific journal of the Fergana State University, (4), 1-1.

6. Mirzakarimova, M. (2025). Didactic Effectiveness of Teaching General Sciences with an Entrepreneurial Orientation. *Journal of Institutional Research South East Asia*, 23(3).
7. Uzoqjonov, M. D. O. G. L., & Mirzakarimova, M. M. (2025). Zamonaviy texnologiyalarning atrof-muhitga ta'siri. *Science and Education*, 6(11), 281-284.
8. El-Atrash, A., Zaki, S., Tousson, E., & Negm, M. (2022). Copper oxide nanoparticles induced liver and kidney toxicity in rat. *Asian Journal of Biochemistry, Genetics and Molecular Biology*, 12(4), 154-160.
9. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonov, M. D. O. G. L. (2025). Zamonaviy axborot texnologiyalariga o'tishda axborot xavfsizligi. *Science and Education*, 6(10), 89-93.
10. МИРЗАКАРИМОВА, М. М. (2022). ХОРИЖИЙ ТИЛЛАРНИ ТАДБИРКОРЛИККА ЙУНАЛТИРИБ УЎҚИТИШНИНГ ДИДАКТИК АСОСЛАРИ.
11. Madaminjonovna, M., & Uzoqjonov, M. (2025). The possibilities of solving environmental problems through technology. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(7), 11-15.
12. Uzoqjonov, M., & Mirzakarimova, M. (2025). The role and significance of artificial intelligence in modern society. *Technical Science Integrated Research*, 1(6), 8-10.
13. Mirzakarimova, M., & Uzoqjonov, M. (2025). Information security in information-communication technologies. *Academic Journal of Science, Technology and Education*, 1(6), 8-11.
14. Умнов, Д. Г., Кариев, А. Д., Тешабоев, А. Ю., & Мирзакаримова, М. М. (2024). Формирование финансовой грамотности и культуры потребления у старших дошкольников. *Перспективы науки и образования*, (6 (72)), 420-436.
15. MADAMINJONOVNA, M. X. T. T. Y. (2022). NALTIRIB O'QITISHNING DIDAKTIK ASOSLARI. *Nova. Pub*, 1-128.
16. Madaminjonovna, M. M. (2024). ECOLOGICAL-VALEOLOGICAL CULTURE IN THE "MAN-NATURE-SOCIETY" SYSTEM. *Web of Teachers: Inderscience Research*, 2(5), 51-55.
17. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). Pedagogik mahoratning shakllanishi va rivojlanishi. *Science and Education*, 5(3), 264-269.
18. Mirzakarimova, M. M. (2024). O'qituvchining muomala madaniyati. *Science and Education*, 5(4), 278-282.
19. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2024). "Avesto" va pedagogik fikrlar rivoji. *Science and Education*, 5(2), 224-228.
20. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). Scientific and pedagogical activity of Imam al-Bukhari. *Science and Education*, 4(12), 321-324.

21. Mirzakarimova, M. M., & Uzoqjonova, M. D. Q. (2023). O'zbekistonda chiqindilarni qayta ishlash muammolarini o'rganish va bartaraf qilish. *Science and Education*, 4(11), 78-83.

22. Mirzakarimova, M. (2023). CLIL TEXNOLOGIYALARI VOSITASIDA O'QUVCHILARNING TADBIRKORLIK KO'NIKMALARINI RIVOJLANTIRISHDA INNOVATSION METOD VA VOSITALAR. *Namangan davlat universiteti Ilmiy axborotnomasi*, (6), 410-415.

23. Мирзакаримова, М. М. (2020). Умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 97-103.

24. Мирзакаримова, М. М. (2020). ESSENTIAL COMPOSITION OF ENTREPRENEURSHIP FUNCTIONAL LITERACY. *INTERNATIONAL SCIENTIFIC AND TECHNICAL JOURNAL" INNOVATION TECHNICAL AND TECHNOLOGY*, 1(1), 63-65.

25. Mirzakarimova, M. M. (2022). The Necessity to Develop Students' Entrepreneurial Skills in English Classes. *Telematique.-2022.-S*, 7128-7131.

26. Мирзакаримова, М. М. (2020). Замонавий шароитларда умумтаълим фанларини тадбиркорликка йўналтириб ўқитиш тизими. *Science and Education*, 1(4), 216-222.

27. Mirzakarimova, M. (2023). EFFECTIVENESS OF STUDENTS'ENTREPRENEURIAL SKILLS DEVELOPMENT THROUGH CLIL TECHNOLOGIES. *Академические исследования в современной науке*, 2(8), 92-94.

28. Madaminjonovna, M. M. (2023). Innovative Methods and Tools for Developing Students' Entrepreneurial Skills Using CLIL Technologies. *International Journal of Human Computing Studies*, 5(3), 15-17.